

**“GLOBAL O‘ZGARISHLAR SHAROITIDA ZAMONAVIY YOSHLAR: MUAMMOLAR VA  
ISTIQBOLLAR” NOMLI  
RESPUBLIKA ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYASI  
AXBOROT XATI  
(2024-yil 22-noyabr, Toshkent sh.)**

O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlar tayyorlash instituti tomonidan **“Global o‘zgarishlar sharoitida zamonaviy yoshlar: muammolar va istiqbollar”** mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

**Konferensiya quyidagi yo‘nalishlarda tashkil etiladi:**

1. Yangi O‘zbekiston yoshlarini kasbga yo‘naltirish.
2. Yoshlarni oilaga tayyorlashning pedagogik-psixologik masalalari.
3. Zamonaviy yoshlarning huquqiy muammolari.

**Ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazilishi tartibi:** Konferensiya **2024-yil 22-noyabr kuni soat 10.00 dan 17.00** gacha Davlat Boshqaruv Akademiyasida (Toshkent shahri, I.Karimov ko‘chasi, 45-uy), shuningdek, Zoom onlayn platformasi orqali o‘tkaziladi. Anjuman gibrid formatda (onlayn va oflayn) bo‘lib, unda dunyoning yetakchi universitetlari olimlari, xalqaro tashkilotlar vakillari, yosh olimlar (doktorantlar, mustaqil tadqiqotchilar hamda magistrlar va bakalavrlar) ishtirok etadilar.

**Ilmiy-amaliy konferensiya ishtirokchilarining ilmiy maqolalari quyidagi talablar asosida qabul qilinadi:**

1. Ilmiy maqolalar konferensiyaning dolzarb masalalariga bag‘ishlangan bo‘lishi, zamonaviy tadqiqot metodologiyasidan foydalangan holda olib borilgan, tugallangan g‘oyalarga asoslangan, tegishli taklif va tavsiyalar bilan o‘ziga xos ilmiy tadqiqot natijalarini o‘z ichiga olishi lozim;

2. Ilmiy maqolalar sohaning yetakchi mutaxassislari tomonidan kamida bitta taqriz bilan qabul qilinadi;

3. Ilmiy maqolalar matnlari A4 qog‘ozda yuqoridan va pastdan 2 sm, chapdan 3 sm, o‘ngdan 1,5 sm masofada tuziladi. Bir nusxada bajarilishi kerak. Maqola sarlavhasi bosh harflar bilan, 1,5 intervaldan keyin muallifning to‘liq ismi-sharifi, 1 intervaldan keyin tashkilot (ish yoki o‘qish joyi) va shahar nomi yoziladi. Keyin 1,5 intervalda bo‘sh joy qoldiriladi va matn mazmuni bir-biridan 1,5 qator masofada yoziladi.

4. Maqolalarning qisqacha annotatsiyasi 6-8 qatordan oshmasligi kerak. Tadqiqot muammosi tavsiflanganda uning dolzarbligi, tadqiqot muammosini tushuntirishda foydalanilgan metodologiya, tadqiqot natijalari, maqolaning to‘liq mazmuni uchun muallifning ilmiy va amaliy hissasi haqida qisqacha ma‘lumot taqdim etiladi.

5. Kalit so‘zlar maqolaning mazmuni va maqsadini qisqacha tavsiflovchi so‘zlar (8-12 so‘z) bo‘lib, maqolada alohida ko‘rsatilishi kerak.

6. Jadvallar, diagrammalar va grafiklar maqola matnida joylashgan bo‘lishi, o‘qish va tushunish uchun qulay bo‘lgan va raqamlangan sarlavhalar va aniq belgilangan ustunlarga ega bo‘lishi kerak. Ulardagi ma‘lumotlar matndagi raqamlarga mos kelishi kerak, lekin undagi ma‘lumotlarni takrorlamasligi kerak. Jadvallarga havolalar matnga kiritilishi kerak.

7. Maqolaning oxirida muallif, unvon, nashriyot, chop etilgan yili, fikr olingan yoki asos qilib olingan sahifa va belgilangan tinish belgilari ko‘rsatilgan holda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati beriladi.

**8.** Matnning elektron nusxasi MS Word formatida, Times New Roman shriftida tayyorlanishi kerak, hajmi 14 kegel va kamida 15 sahifa va o'rtacha 20 sahifagacha. Maqolaning elektron nusxasi (RTF) va skanerlangan nusxasi (PDF) taqriz imzosi bilan **YouthConference2024 telegram** manziliga yuborish kerak.

**9.** Konferensiya materiallarini **2024-yil 25-sentabrdan 25-oktabrgacha** O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlar tayyorlash instituti tashkiliy qo'mitasiga (I.Karimov ko'chasi, 45-uy, Toshkent) **YouthConference2024 telegram** manziliga yuborish kerak. Ilg'or g'oyalarga ega bo'lgan maqolalar Ilmiy konferensiya materiallari to'plamida chop etiladi.

**10.** Maqolalar plagiatga qarshi dasturda tekshiriladi .

Maqolalar o'zbek, rus va ingliz tillarida qabul qilinadi. Ingliz tilidagi maqolalarga ustunlik beriladi.

Maqolalar ilmiy tashkiliy qo'mita tomonidan tanlanadi.

1-ilovasiz, talablarga javob bermaydigan maqolalar chop etilmaydi va qo'lyozma qaytarilmaydi.

Taqdim etilgan ma'lumotlar va ularning ilmiy-nazariy asoslanishi va maqolaning uslubiy jihatlari uchun muallif(lar) javobgardir.